

AGROBIZNES, FAN VA TEXNOLOGIYALAR

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON
JURNALI

Агробизнес, наука и технологии

Agribusiness, science and technology

№ 083688



ISSN:
3060-5245



Toshkent-2026

Platform & workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR

Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.

Bosh muharrir o'rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Farmonov To'liqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenene – professor, (Vilniaus Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna – i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay'ati:**08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:**

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;

Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;

Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Javlijev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);

Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);

Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);

Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;

Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;

Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);

Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;

Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS

Toshkent davlat agrar
universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

JURNALNING ILMIYLIGI:

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 30.11.2024-yildagi
№364/5-sonli qarori bilan
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
bo'yicha, 08.05.2025-yildagi
№370/5-sonli qarori bilan
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari
bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy
ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 328-sahifa.
2026-yil, sentabr.





MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

КУРПАЯНИДИ КОНСТАНТИН ИВАНОВИЧ

Стратегии цифровой трансформации в Европейском союзе и потенциал институционального трансфера Французского опыта в Узбекистан.....11

ERGASHEV RUSTAM RAJABOVICH

Ilmiy ishlanmalar asosida Spin-off korxonalarini tashkil etish va rivojlantirishning bosqichli boshqaruv modeli.....25

ABDURAXMANOVA MUQADDAS TOXTASINOVNA

Temir yo'l transporti korxonalarida ekologik-iqtisodiy samaradorlikni oshirishning ilg'or mexanizmlari.....34

ABDULLAYEV ILYOS AXMADOVICH, JABBOROV JAMOLIDDIN MUXAMMADJON O'G'LI

Surxondaryo viloyatida demografik jarayonlarning statistik tahlili.....44

XASANOV SANJARBEK ABDUMANNOBVICH

Sanoat korxonalarida raqamli transformatsiya darajasini baholash uslubiyoti ("Farg'onaazot" AJ misolida).....50

ABDURAZAKOVA NARGIZA RIXSIBAYEVNA

Aksiyadorlik jamiyatlarida xususiy kapital rentabelligiga ta'sir etuvchi omillar: O'zbekistonning uchta aksiyadorlik jamiyati misolida panel tahlil.....57

SULTANOVA ZUXRA JAKSILIKOVNA

Qaraqalpaqstan Respublikasida region ekonomikasini rivojlantirishda IT park xizmatini amalga oshirish masalalari ham paydalanilgan mumkinliklari.....69

ERGASHEV G'YOS BAXROM O'G'LI

Mamlakat qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini oshirish zarurati.....76

URMANOVA UMIDA XAKIMDJANOVNA

Sanoat tarmoqlariga investitsiyalarni jalb etish holati va rivojlanish tendensiyalari.....87

SHAMSIDDINOVA DILNOZA SHAVKAT QIZI

O'zbekiston chirm poyabzal korxonalarida milliy brend qiymatini oshirishning marketing mexanizmlarini takomillashtirish.....97

MUSAYEV OZODJON SHAVKAT O'G'LI

Mehnat resurslarini boshqarishning zamonaviy usullari va ularning iqtisodiy samaradorligi.....106

XALIKCHAYEVA SADOKAT

Qum-shag'al mahsulotlarini realizatsiya qilishda soliq bazasini aniqlash metodologiyasi "Minimal narx" mexanizmining tatbiq chegaralarini takomillashtirish masalalari.....113

XUSANOV SHUXRAT BURXANOVICH

Moliyaviy hisobotlarni qalbakilashtirish xavfi ko'rsatkichlari tizimini ishlab chiqish.....122





QUDRATOV ALISHER ALIJANOVICH, QODIRQULOVA SEVINCH TOIR QIZI	
Qishloq xo'jaligida dukkakli mahsulotlarni yetishtirishda davlatning iqtisodiy tutgan o'rni.....	133
IKROMOVA IRODA	
Transport logistika korxonalari va koridorlari samaradorligini oshirishda milliy logistikani boshqarish markazi platformasi.....	139
AXMADOVA IRODA MUZAFFAR KIZI	
The economic role of professional tour guides in enhancing the quality of ecotourism services.....	153
SODIQOVA NIGORA TURAYEVNA	
Suv resurslari cheklangan sharoitda hududiy ixtisoslashuvni takomillashtirish bo'yicha xorijiy tajribalar va ulardan O'zbekiston sharoitida foydalanish.....	165
АСРОРОВА МАВЛУДА АБДУШУКУРОВА	
Кадровый потенциал в системе государственной научно-инновационной политики: сравнительный анализ опыта зарубежных стран.....	175
KULIBOYEV AZAMAT SHONAZAROVICH	
Davlat tibbiyot tashkilotlarida tibbiy xizmatlar kalkulyatsiyasini shakllantirish va xarajatlar hisobining uslubiy muammolari.....	193
UMAROV JAVOHIR BAHODIR O'G'LI	
Tovar operatsiyalari hisobini avtomatlashtirishda integratsiyalashgan axborot tizimlarining roli: jahon tajribasi misolida.....	204
KADIROVA LAZOKAT YUREVNA	
Davlat moliyaviy nazorati jarayonlarini sun'iy intellekt yordamida riskka yo'naltirilgan raqamli nazorat modeli asosida takomillashtirish.....	212
BAXSHULLOYEV FERUZBEK	
The economics of digital water management: a critical review.....	226
TO'XTAYEV UMIDJON SHUHRAT O'G'LI	
Xususiy tibbiy xizmatlar raqobatbardoshligini oshirish iqtisodiy mexanizmi amal qilish tamoyillari.....	236
RAXIMOV ANVAR NORIMOVICH, MIRZAYOROVA HURIYAT UBAYDULLAYEVNA	
Qashqadaryo viloyatida qishloq xo'jaligi tadbirkorligi samaradorligidagi hududiy tafovutlarni baholash.....	244
XURRAMOV XOLBEK XURRAM O'G'LI	
O'zbekistonning janubiy hududlarida anorchilik tarmog'ining rivojlanish tendensiyalari.....	251
ABDUSHEROZOVA MADINA SODIQJON QIZI	
Agrologistika korxonalarini rivojlantirish va shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish.....	258
ZARIKEYEVA MIYASAR MARATOVNA	
Ekonometrik modellashtirishda endogenlik muammosi: nazariy yondashuvlar va zamonaviy baholash usullari.....	264
KODIROVA GAVHAROI QUTBIDINOVNA	
Sanoat korxonalarining tashkiliy va iqtisodiy xususiyatlari.....	276





DJURAYEVA RUXSORA NEMATILLOYEVNA

Qishloq joylarida aholi turmush farovonligini yaxshilash va bandligini ta'minlash
yo'llari (Buxoro viloyati misolida).....283

SULTANOV BAXODIR FAYZULLAYEVICH, SULTANOV AZIZBEK BAXODIR

O'G'LI

Qishloq xo'jaligida melioratsiyadan yashil-raqamli transformatsiyagacha:
evolyutsion rivojlanish va boshqaruv modeli.....290

BAYMURATOVA ZINA AQILBEKOVNA

Improving the credit risk management system in commercial banks.....299

SHERQO'ZIYEVA UMIDA ULUG'BEK QIZI

Sun'iy intellekt ta'sirida mehnat bozori: texnologik ishsizlik, kasblar qayta
taqsimlanishi va inson kapitaliga yangi talablar.....308

MASHARIPOVA SARVINOZ

Sanoat tarmoqlarida yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida energiya
tejamkorligini oshirishda xorij tajribasi.....320

ACHILOV MASHRAB ULUG'BEKOVICH

Intensiv bog'dorchilikni modernizatsiyalashning resurs-integratsiyalashgan
mexanizmi.....328





INTENSIV BOG'DORCHILIKNI MODERNIZATSIYALASHNING RESURS-INTEGRATSIYALASHGAN MEXANIZMI

ACHILOV MASHRAB ULUG'BEKOVICH

Toshkent davlat agrar universiteti
Agrobiznesni boshqarish va logistika kafedrası mudiri,
i.f.f.d. (PhD), dotsent
E-mail: m_achilov@inbox.ru
<https://orcid.org/0009-0000-2961-6464>

Annotatsiya. Maqolada Jizzax viloyatida intensiv bog'dorchilikni modernizatsiyalashning mavjud holati va 2026–2030 yillarga mo'ljallangan rivojlanish prognozlari tahlil qilingan. Intensiv bog'zorlar maydonining tumanlar kesimidagi dinamikasi asosida resurslarga bo'lgan ehtiyoj va ulardan samarali foydalanish masalalari asoslangan. Intensiv bog'dorchilikni modernizatsiyalashda moliyaviy, suv, energetik, moddiy-texnika va texnologik resurslarni yagona qiymat zanjiri asosida muvofiqlashtirishga qaratilgan resurs-integratsiyalashgan mexanizm taklif etilgan.

Kalit so'zlar: intensiv bog'dorchilik, modernizatsiya, resurslar, resurs-integratsiyalashgan mexanizm, bog'zor maydoni, prognoz, suv tejovchi texnologiyalar, subsidiya, lizing, eksport.

Аннотация. В статье анализируется текущее состояние модернизации интенсивного садоводства в Джизакской области и прогнозы развития на 2026–2030 годы. На основе динамики площади интенсивных садов в разрезе районов обоснованы вопросы потребности в ресурсах и их эффективного использования. Предложен ресурсно-интегрированный механизм, направленный на координацию финансовых, водных, энергетических, материально-технических и технологических ресурсов на основе единой цепочки создания стоимости при модернизации интенсивного садоводства.

Ключевые слова: интенсивное садоводство, модернизация, ресурсы, ресурсно-интегрированный механизм, площадь садов, прогноз, водосберегающие технологии, субсидии, лизинг, экспорт.

Abstract. The article analyzes the current state of modernization in intensive horticulture in the Jizzakh region and development forecasts for 2026–2030. Based on the dynamics of the area of intensive orchards in the context of districts, the need for resources and issues of their effective use are substantiated. In the modernization of intensive horticulture, a resource-integrated mechanism is proposed aimed at coordinating financial, water, energy, material-technical, and technological resources based on a single value chain.

Keywords: intensive horticulture, modernization, resources, resource-integrated mechanism, garden area, forecast, water-saving technologies, subsidy, leasing, export.

KIRISH

Qishloq xo'jaligini modernizatsiyalashda resurslardan samarali foydalanish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish muhim vazifalardan hisoblanadi. O'zbekiston qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasida ham resurslardan oqilona foydalanish, investitsiyalarni jalb etish, zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan [1].

Modernizatsiya jarayonida resurs salohiyatidan samarali foydalanish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish o'zaro bog'liq yo'nalishlar sifatida namoyon bo'ladi. Agrar sektorda resurslardan foydalanish samaradorligini





oshirish ularni oqilona taqsimlash va kompleks foydalanishni talab etadi [2]. Qishloq xo'jaligida innovatsiyalarni joriy etish va ularni rag'batlantirish esa ishlab chiqarish jarayonlarini texnologik yangilashning muhim sharti hisoblanadi [3].

Intensiv bog'dorchilikda mazkur masala yanada dolzarb xususiyatga ega. Chunki intensiv bog'larni tashkil etish va ularning samarali faoliyatini ta'minlashda sifatli ko'chat, suv, texnika, moliyaviy mablag' va energiya resurslari bilan bir qatorda, mahsulotni saqlash, qayta ishlash, sotish va logistika imkoniyatlarining o'zaro muvofiqligi talab etiladi. Intensiv bog'dorchilik bo'yicha maxsus tadqiqotlarda iqtisodiy samaradorlikni baholash, resurs tejamkorligi, zamonaviy va raqamli texnologiyalardan foydalanish, mahsulotlarni saqlash hamda realizatsiya qilish masalalari alohida o'rganilgan [4].

Shu bilan birga, mavjud yondashuvlarda intensiv bog'dorchilikning alohida iqtisodiy va texnologik jihatlarini baholashga e'tibor qaratilgan bo'lsa, intensiv bog'zorlar maydonining hududiy o'sish prognozlarini resurslarga bo'lgan qo'shimcha ehtiyoj bilan bog'lash, moliyaviy va moddiy resurslarni texnologik bosqichlar kesimida muvofiqlashtirish hamda ishlab chiqarishdan bozorgacha bo'lgan jarayonlarni yagona boshqaruv tizimiga birlashtirish masalasi alohida yondashuvni talab etadi. Mazkur holat intensiv bog'dorchilikni modernizatsiyalashda resurs-integratsiyalashgan mexanizmni shakllantirish zaruratini belgilaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Agrar sohada resurslardan samarali foydalanish masalalari U.P.Umurzokov tomonidan tadqiq etilgan bo'lib, unda resurs salohiyatidan kompleks foydalanishning ahamiyati asoslangan [2]. Q.A.Choriyev qishloq xo'jaligida innovatsiyalarni joriy etish va rag'batlantirish masalalarini yoritgan [3]. O.B.Sattorov esa intensiv bog'dorchilikni rivojlantirishning iqtisodiy asoslari, resurs tejamkorligi va mahsulotni realizatsiya qilish masalalarini tadqiq etgan [4]. Qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasida ham resurslardan oqilona foydalanish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan [1].

Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda intensiv bog'zorlar kengayishini resurslarga bo'lgan ehtiyoj, texnologik jarayonlar va bozor infratuzilmasi bilan yagona tizimda bog'lash masalasi yetarlicha yoritilmagan. Mazkur tadqiqot ushbu masalani resurs-integratsiyalashgan mexanizm asosida takomillashtirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli va kompleks yondashuv, iqtisodiy-statistik tahlil, taqqoslash, guruhlash, dinamik qatorlar tahlili hamda prognozlash usullaridan foydalanildi. Intensiv bog'zorlar maydonining hududiy taqsimoti va 2026–2030 yillardagi prognoz ko'rsatkichlari taqqoslanib, resurslarga bo'lgan ehtiyojning asosiy yo'nalishlari aniqlandi.





Resurs-integratsiyalashgan mexanizmni shakllantirishda agrar resurs salohiyatidan samarali va kompleks foydalanish [2], innovatsiyalarni ishlab chiqarish jarayoniga joriy etish va rag'batlantirish [3] hamda intensiv bog'dorchilikda resurs tejamkorligi va iqtisodiy samaradorlikni baholashga oid maxsus yondashuvlar [4] nazariy-uslubiy asos sifatida qabul qilindi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Monografik tadqiqotlar olib borilgan Jizzax viloyatida intensiv bog'zorlarning asosiy qismi Baxmal, G'allaorol, Sh.Rashidov va Zomin tumanlarida jamlangan. Taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra, mavjud intensiv bog'zorlar maydoni 8 633 gektarni tashkil etadi. Jumladan, Baxmalda 3 460 gektar, Sh. Rashidovda 1 808 gektar, Zominda 1 788 gektar va G'allaorolda 1 520 gektar intensiv bog'zor mavjud. Yangiobodda esa ushbu ko'rsatkich 57 gektarni tashkil etadi.

Bu ko'rsatkichlar intensiv bog'dorchilikning hududiy konsentratsiyasi yuqori ekanligini ko'rsatadi. Shuning uchun modernizatsiya resurslarini viloyat tumanlari o'rtasida bir xil taqsimlashdan ko'ra, mavjud ishlab chiqarish salohiyati va kelgusi o'sish hajmini hisobga olgan holda yo'naltirish maqsadga muvofiq.

Jadval ma'lumotlari viloyatda intensiv bog'zorlar maydoni 2026 yilda 9 064 gektardan 2030 yilda 11 017 gektargacha oshishini ko'rsatmoqda. Demak, prognoz davrida maydon 1 953 gektarga yoki 21,5 foizga ko'payishi kutilmoqda.

1-jadval

Jizzax viloyati tumanlarida intensiv bog'zorlarning mavjud maydoni va 2026–2030 yillardagi prognoz ko'rsatkichlari (ga)

Tumanlar	Mavjud bog'zorlar	2026	2027	2028	2029	2030
Baxmal	3 460	3 633	3 815	4 005	4 206	4 416
G'allaorol	1 520	1 596	1 676	1 759	1 847	1 940
Sh. Rashidov	1 808	1 898	1 993	2 093	2 198	2 308
Zomin	1 788	1 877	1 971	2 069	2 173	2 281
Yangiobod	57	60	63	66	69	73
Viloyat bo'yicha jami	8 633	9 064	9 517	9 993	10 493	11 017

Manba: Jizzax viloyati qishloq xo'jaligi boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.


Mazkur prognoz ko'rsatkichlarining amalga oshirilishi intensiv bog'dorchilikning ishlab chiqarish bazasini kengaytirish bilan bir qatorda, tarmoqda resurslardan foydalanish ko'lamini ham oshiradi. Xususan, yangi bog'zorlarni tashkil etish uchun sifatli ko'chat, suv resurslari va suv tejoychi texnologiyalar, zamonaviy texnika, energetika hamda moliyaviy resurslarga bo'lgan talab ortadi. Shu bilan birga, yetishtiriladigan mahsulot hajmining ko'payishi saqlash, saralash, qayta ishlash, sertifikatlash va logistika infratuzilmasini rivojlantirishni taqozo etadi.



Shu nuqtayi nazardan, 2030 yilga kelib intensiv bog'zorlar maydonining 11 017 gektarga yetkazilishi faqat yer maydonining kengayishini emas, balki intensiv bog'dorchilikning ishlab chiqarish, resurs ta'minoti va ishlab chiqarishdan keyingi infratuzilma salohiyatining bir vaqtda oshishini anglatadi. Prognozning amalga oshirilishi natijasida yangi intensiv bog'zorlarning ishlab chiqarish jarayoniga jalb etilishi, suv tejovchi texnologiyalar va mexanizatsiya vositalaridan foydalanish ko'lamining kengayishi, saqlash va qayta ishlash quvvatlariga bo'lgan ehtiyojning ortishi hamda mahsulotlarni sertifikatlash va eksportga yo'naltirish imkoniyatlarining kengayishi uchun shart-sharoit shakllanadi.

Shu bilan birga, bog'zorlar maydonining kengayishi resurslarga bo'lgan talabni ham oshiradi. Yangi maydonlar uchun sifatli ko'chat, sug'orish infratuzilmasi, suv tejovchi texnologiyalar, texnika, energiya va moliyaviy resurslar zarur bo'ladi. Bundan tashqari, mahsulot hajmining o'sishi saqlash, saralash, qayta ishlash va logistika quvvatlarini ham mutanosib ravishda kengaytirishni talab qiladi.

Demak, hududiy boshqaruv organlari tomonidan belgilangan prognoz ko'rsatkichlariga erishishning o'zi yetarli emas; ushbu o'sishni ta'minlaydigan resurslar, texnologiyalar va infratuzilma o'rtasidagi mutanosiblikni boshqarish talab etiladi. Shu sababli prognoz natijalarini resurs ta'minoti va texnologik jarayonlar bilan bog'laydigan resurs-integratsiyalashgan boshqaruv mexanizmini shakllantirish zarur.



Manba: tadqiqot natijalari asosida tuzilgan.

1-rasm. Intensiv bog'dorchilikni rivojlantirishning resurs-integratsiyalashgan boshqaruv mexanizmi



Intensiv bog'dorchilikda resurslardan samarali foydalanish ularning mavjudligi bilan bir qatorda, ishlab chiqarish jarayonining turli bosqichlari o'rtasidagi muvofiqlikka bog'liq. Shu sababli subsidiya, imtiyozli kredit, lizing, suv tejovchi texnologiyalar, energiya ta'minoti va sertifikatlash kabi instrumentlarni alohida qo'llashdan ko'ra, ularni yagona texnologik zanjirga birlashtirish maqsadga muvofiq.

Tadqiqot natijasida taklif etilayotgan mexanizmning asosiy tamoyili **“resurs – texnologik jarayon – natija”** o'rtasida funksional bog'liqlikni shakllantirishdan iborat. Bunda har bir qo'llab-quvvatlash vositasi muayyan texnologik bosqich va yakuniy natija bilan bog'lanadi.

Mexanizmning dastlabki bosqichida intensiv bog'larni tashkil etish uchun subsidiya va sifatli ko'chatlardan foydalanish ko'zda tutiladi. Keyingi bosqichda suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish orqali suv resurslaridan foydalanish samaradorligi oshiriladi. Mexanizatsiya jarayonida zamonaviy texnika va uskunalarni subsidiya hamda lizing asosida jalb etish nazarda tutiladi.

Bog'dorchilik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash quvvatlarini shakllantirish uchun imtiyozli kredit va investitsiya resurslarini yo'naltirish mexanizmning keyingi elementi hisoblanadi. Intensiv bog'dorchilikda mahsulot hajmining ortishi bilan bir vaqtda saqlash, saralash, qayta ishlash va logistika quvvatlarini ham mutanosib rivojlantirish zarur. Bu jarayonda fermer xo'jaliklari ishtirokida kooperativ saqlash obyektlarini tashkil etish, yirik intensiv bog'lar negizida xususiy investitsiyalar hisobidan saqlash quvvatlarini shakllantirish va savdo-logistika infratuzilmasini diversifikatsiya qilish imkoniyatlaridan foydalanish mumkin [4].

Shunday qilib, mexanizm quyidagi funksional zanjirni shakllantiradi:

bog' barpo etish – suv ta'minoti – mexanizatsiya – yetishtirish – saqlash va qayta ishlash – sertifikatlash – logistika – eksport.

Mazkur zanjirda moliyaviy va resurs instrumentlarining texnologik bosqichlarga birlashtirilishi modernizatsiya jarayonining ichki muvofiqligini ta'minlaydi. Masalan, subsidiya bog' barpo etish va suv tejovchi texnologiyalarga, lizing texnikaga, imtiyozli kredit saqlash-qayta ishlash infratuzilmasiga, sertifikatlash esa eksportbop mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltiriladi.

Mexanizmning muhim elementi – yagona raqamli monitoring tizimi. Unda bog'zorlar holati, resurslar bilan ta'minlanganlik, subsidiya va kreditlardan foydalanish, suv tejovchi texnologiyalar qamrovi, hosildorlik, saqlash-qayta ishlash quvvatlari va eksport natijalari bo'yicha ma'lumotlarni birlashtirish mumkin. Raqamli marketing-monitoring yondashuvi ishlab chiqarish, marketing, sertifikatlash va eksport jarayonlarini yagona axborot muhitiga birlashtirish imkonini beradi.

Mazkur monitoring tizimida resurslardan foydalanish samaradorligini baholash uchun resurs tejamkorlik darajasi bilan bir qatorda, mahsulot tannarxi, mahsulot sifati, eksport ulushi va rentabellik kabi iqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin [4]. Bunday ko'rsatkichlarni texnologik va raqamli





texnologiyalardan foydalanish darajasi bilan bog'lash resurs-integratsiyalashgan mexanizmning natijaviyligini baholash imkonini beradi.

Bu yerda boshqaruvning natijaviy tamoyilini quyidagicha ifodalash mumkin:

resurs – texnologik tadbir – ishlab chiqarish natijasi – iqtisodiy samara – bozor natijasi.

Bunday yondashuv resurslardan foydalanishni faqat ajratilgan mablag'lar hajmi bo'yicha emas, balki olingan natija bo'yicha baholash imkonini beradi. Mexanizmni KPI asosida monitoring qilish esa resurslarni qayta taqsimlash va investitsiya qarorlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Olingan natijalar intensiv bog'dorchilikni modernizatsiyalashda resurslarni tarmoqning alohida elementlari bo'yicha boshqarishdan ularni yagona qiymat zanjiri doirasida muvofiqlashtirishga o'tish zarurligini ko'rsatadi. Bunda resurs salohiyatidan kompleks foydalanish [2] va innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarish jarayoniga joriy etish [3] modernizatsiyaning alohida tarkibiy elementlarini tashkil etsa, intensiv bog'dorchilikka oid maxsus tadqiqotlarda resurs tejamkorligi, iqtisodiy samaradorlik, saqlash va realizatsiya masalalarining o'rganilganligi [4] mazkur elementlarni yagona mexanizm doirasida birlashtirish uchun uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Jizzax viloyati misolida mazkur yondashuvning amaliy ahamiyati prognoz ko'rsatkichlarida yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Intensiv bog'zorlar maydonining 2030 yilgacha 11 017 gektarga yetkazilishi yangi ishlab chiqarish resurslariga bo'lgan talabni shakllantiradi. Shuning uchun maydonni kengaytirish bilan bir vaqtda suv tejovchi texnologiyalar, texnika, energiya, saqlash va qayta ishlash quvvatlarini rivojlantirish zarur.

Bunda resurs-integratsiyalashgan mexanizmning ustunligi resurslarning o'zida emas, balki ular o'rtasidagi tashkiliy va iqtisodiy bog'liqlikni ta'minlashda namoyon bo'ladi. Ya'ni bog' barpo etish uchun ajratilgan resurs keyingi texnologik bosqichlar bilan ta'minlanishi, ishlab chiqarilgan mahsulot esa saqlash, qayta ishlash, sertifikatlash va bozorga chiqarish imkoniyatlari bilan bog'lanishi kerak. Shu jihatdan mexanizmning natijaviyligi resurslarning ajratilgan hajmi bilan emas, ularning texnologik jarayonlar va yakuniy bozor natijalari bilan qay darajada bog'langanligi orqali baholanishi lozim.

Shu nuqtayi nazardan, intensiv bog'dorchilikni modernizatsiyalashda resurs-integratsiyalashgan mexanizmni qo'llashning asosiy shartlari quyidagilardan iborat: hududiy resurs rejalashtirish, moliyaviy instrumentlarni texnologik bosqichlarga birlashtirish, suv va energiya samaradorligini ta'minlash, ishlab chiqarishdan keyingi infratuzilmani mutanosib rivojlantirish hamda raqamli monitoringni joriy etish.

XULOSA

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Jizzax viloyatida intensiv bog'dorchilik hududlar bo'yicha notekis shakllangan bo'lib, asosiy maydonlar Baxmal, G'allaorol, Sh. Rashidov va Zomin





tumanlarida jamlangan. Bu resurslarni hududiy differensiatsiya asosida taqsimlash zaruratini belgilaydi.

2. 2026–2030 yillarda viloyatda intensiv bog‘zorlar maydoni 9 064 gektardan 11 017 gektargacha, ya’ni 1 953 gektarga yoki 21,5 foizga oshishi prognoz qilingan. Mazkur o’sish resurs va infratuzilma ta’minotini oldindan rejalashtirishni talab etadi.

3. Intensiv bog‘dorchilikni modernizatsiyalashning resurs-integratsiyalashgan mexanizmida subsidiya, imtiyozli kredit, lizing, suv tejovchi texnologiyalar, energetika va sertifikatlash instrumentlarini yagona texnologik zanjirga birlashtirish taklif etildi.

4. Mexanizmning asosiy xususiyati **“resurs – texnologik jarayon – natija”** o‘rtasidagi funksional bog‘liqlikni ta’minlashdan iborat. Bu yondashuv davlat qo‘llab-quvvatlash choralarining natijadorligini baholash va resurslarni maqsadli qayta taqsimlash imkonini beradi.

5. Intensiv bog‘dorchilikni modernizatsiyalashning axborot asosi sifatida yagona raqamli monitoring tizimini shakllantirish maqsadga muvofiq. U orqali resurslardan foydalanish, texnologik jarayonlar va iqtisodiy natijalarni yagona tizimda kuzatish mumkin.

Shu tariqa, resurs-integratsiyalashgan mexanizm intensiv bog‘dorchilikni modernizatsiyalashni faqat ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish emas, balki resurslar, texnologiyalar, infratuzilma va bozor jarayonlarini yagona qiymat zanjiri asosida muvofiqlashtirishga yo‘naltirilgan tashkiliy-iqtisodiy yondashuv sifatida shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktabrdagi PF–5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. – Toshkent, 2019. Manba: LexUZ.

2. Умурзаков У.П. Повышение эффективности использования ресурсного потенциала аграрного сектора экономики Узбекистана. – Т.: Fan, 2005. – 211 с.

3. Choriyev Q.A. Qishloq xo‘jaligida innovatsiyalar joriy qilish tizimini shakllantirish va rag‘batlantirish istiqbollari: uslubiy tavsiyalar. – T.: O‘zQXIITI, 2014. – 32 b.

4. Sattorov O.B. Fermer xo‘jaliklarida intensiv bog‘dorchilikni rivojlantirishning iqtisodiy asoslarini takomillashtirish yo‘nalishlari: avt. ... diss. i.f.f.d. (PhD). – Toshkent, 2021.



Mas'ul muharrir: Beglayev Uchqun

Musahhih: Boltayev Nurali

Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru

Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjournal

Telefon raqami: +998939018320, +998934393000

Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.



"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan C-5669225 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №083688

Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko'chasi, 2-uy